



2019 YIL YANVAR-AVGUST OYLARIDA ANDIJON VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQUARISHI

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-avgust

RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **21343,0 mlrd.so'mni** ;
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi **16814,1 mlrd. so'mni** ;
- Iste'mol tovarlarning ja'mi sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **78,8 %** ni
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi **22,2 %** ni tashkil etdi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-avgust oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan **21343,0** mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan .

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan **122,3 %** oshgan, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **97,7** foizni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilga nisbatan **83,4 %** oshgan, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **0,5** foizni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari o'tgan yilga nisbatan **90,5 %** oshgan, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **1,6** foizni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish korxonalari o'tgan yilga nisbatan **151,6 %** oshgan, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **0,2** foizni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-avgust oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

0,5 %

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.



97,7%

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).



1,6 %

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.



0,2 %

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish.





Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **108,4** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,5 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **20846,5** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **97,7 %** ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **335,4** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,6 %** ni tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **52,6** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,2 %** ni tashkil etdi.



Yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarilishi

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari	O'lchov birligi	2019 yil Yanvar-avgust oy- larida ishlab chiqarilgan mahsu- lotlar	2018 yil yavar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulot- lar
Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilmagan)	dona	135661	90492
Paxtadan yigirilgan ip	tonna	15918,1	14282,3
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar suv va suvsiz muhitda	tonna	1868,8	1248,5
Tabiiy gaz	mln. kub. metr	28,5	22,2
O'simlik yog'i (tozalangan)	tonna	9412,6	7511,6


Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari	O'lchov birligi	2019 yil Yanvar-avgust oy- larida ishlab chiqarilgan mahsu- lotlar	2018 yil yavar- avgust oylarida ish- lab chiqarilgan mahsulotlar
Neft	ming tonna	41,7	46,2
Bugdoy uni	tonna	86977	81548
Trikotag yoki qulda tuqilgan tashqi ki- yim	dona	2666	2558
Alyuminiydan elektr o`ralgan sim, po`lat arqonlar, past kuchlanishdagi kabel, to`kilgan shnurlarva shu kabi buyumlar	tonna	184,2	150,0
Aroq – (spirt 100%)	ming litr	500,4	1043,0

Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Asaka tumani 62,3 % ulushini, Andijon shaharlari 14,9 %, Honobod shaharlari 3,5 %, Andijon tumani 2,7 %, Shahrixon 2,5 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar kesimida jami sanoat ishlab chiqarish hajmi

1-diagramma



Shu bilan birga eng kam ulush Bo'z (0,6 %), Ulug'nor (0,6 %) va Buloqbo'shi (0,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.


Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida, viloyatda 2019 yilning yanvar-avgust oylarida jami 21343,0 mlrd so'mga teng sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Shahar va tumanlar kesimida yuqori hajm Asaka tumanida 13287,4 mlrd so'mni, Andijon shahrida 3173,9 mlrd so'mni, Honobod shahrida 745,9 mlrd so'mni, Andijon tumanida esa 586,5 mlrd so'mni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora - tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi **16814,1** mlrd.so'mni tashkil etdi va ja'mi sanoatdagi ulushi esa **78,8 %** ga yetdi.


2019 yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 16814,1 mlrd.so'm

2-diagramma




Yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da

3-diagramma



*2019 yilning yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi*

4-diagramma




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 22,2 % tashkil etmoqda.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %

7-diagramma




Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulqoboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Baliqchi tumanida (99,5 %) va Hojaobod tumanida (92,2 %) va SHahrixon tumanida (92,5 %) tashkil etdi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Asaka tumanida (2,5 %), Honobod shahri (15,1 %) kuzatildi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Asaka tumanida 41468,4 ming so'm, Honobod shahrida 17823,9 ming so'm, Andijon shahrida 7291,1 ming so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan 6934,6 ming so'm yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2019 yil yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

6-diagramma



Andijon viloyat statistika boshqarmasining

Sanoat statistikasi bo'limi

Telefon: (+99871) 233-82-57